Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini xorijiy tajribalar asosida boshqarish tizimini takomillashtirish	566
Sotimova Barno Marufjonovna	
Tasviriy san'at fanini o'qitishda milliy san'at elementlaridan foydalanishning ayrim metodlari	570
Abdullayev Sayfulla Fayzullayevich, Abdullayev Suxrob Sayfullayevich, Zikrillayeva Visola Hamrayevna	
Метод, основанный на построении симметрии при делении угла с недоступной вершиной	576
Эсонов Мунавваржон Муқимжонович	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni muhandislik faoliyatiga tayyorlash pedagogik muammo sifatida.....	579
Hamraqulov Yorqin Murtazaqulovich	
Internet tizimida muloqotning gendorologik tipologiyasi	584
Raxmonova Barno Odilovna	
Bolalarga xos nutq muhitida etiketning ahamiyati	587
Temirova Nargiza Davlat qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda virtual reallik asosidagi texnologiyalardan foydalanish.....	590
Choriyeva Lobar Fayzullo qizi, Teshaboyeva Zamira Sabirovna, Safarov Azamat Rasul o'g'li	
Hozirgi kun pedagogi.....	594
Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi	
"Avesto"dagi ta'limiy-axloqiy qarashlarning nazariy asoslari va pedagogik ahamiyati	598
Ibragimova Farangiza Oybekjon qizi	
Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-pedagogik muammolarning shakllanish omillari va bartaraf etish yo'llari	602
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga tayyorlashda strategik menejmentning o'rni va ahamiyati.	607
Mannonova Barno	
Scientific-Theoretical Bases of Developing Students' Creative Ability Through Folk Practical Art	611
Ruziyeva Mekka Shukhrat kizi	
3-sinf ona tili darslarida integratsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	615
Jurayeva Dildora Ilhom qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi	
Kurash mashg'ulotlari jarayonida texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	618
Soatov E. M.	
Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishga asoslangan dasturiy ta'minot yaratish mohiyati	623
Janabergenova Aysuliy Jaksilikovna	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar	626
Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna	
O'zbek va qoraqalpoq tillarini integratsiyalashgan holda o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	631
Mapruza Embergenova	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati	636
Jumayeva Maxbuba O'ktam qizi	
Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslari	641
Narzikulov Javohir Ikromovich	
Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....	645
Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё	



Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....	652
<i>Ochilova Mohinur</i>	
Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi	656
<i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>	
Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления	660
<i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>	
Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	

Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
Д. Б. Бабаева	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике	750
Шарипов Одилжлон Гуломжон угли	
Iqtidorli talabalarni aniqlash va rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	754
Abdiyeva E'zoza Beknazar qizi	
Innovatsion menejment tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlari	759
Hikmatova Niginabonu Siddiq qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni anonim baholash tizimining ishonchliligi va pedagogik samaradorligini baholash.....	764
Maksudova Aziza Ikramdjanovna, Akramxo'jayev Yo'ldoshxo'ja Tursunxo'jayevich, Avezov Toshtemir Abdualiyevich, Abdullayeva Maftuna Shonazarovna	
Raqamli ta'lim muhitida mexanikani o'qitishning pedagogik muammolari.....	771
Choriyev Islom G'ayratovich	
Musiqqa mashg'ulotlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	775
Siddiqova Gulnoza Sharaviddinovna, Bahora Akbarova	
Moychechak yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarning ta'siri	778
Jabbarova Nigina Zoxidjon qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida bo'lg'usi matematika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish	783
Esonov Munavvarjon Mukimjonovich, Xabibullayev Islomjon Soyibjon o'g'li	
Специфика формирования математического мышления студентов вузов посредством модуля "векторы"	786
Эсонов Мунавваржон Муқимжонович, Салихов Амир Тимурович	
Autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarining nazariy-metodologik asoslari..	790
Rayimova Gulchehra Utkur qizi	
Особенности использования инструментов управления проектами: отраслевой подход.....	794
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etishda qiyinchiliklar va samarali strategiyalar.....	800
Abdalimova Iroda Ummatqul qizi	
Manzara janrining tasviriy san'atdagi o'rni: ekologik-estetik mazmuni va ta'limiy imkoniyatlari	805
Abdumajidova O'g'loy Ravshanjon qizi	
E-Assessment vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va funksional imkoniyatlari.....	809
Abdumannopov Murodjon Ilxomjon o'g'li	
Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirishning interfaol metodlari.....	813
Abduvaxobov Shohruhbek Ikromjon o'g'li	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashdagi muammolar	816
Davlatova Furuza Kamolovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim va zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish	820
Hayitov Abdurasul Eshdaviatovich, Xolboyeva Nigina Uchqunovna, Ravshanov Asliddin Ulug'bek o'g'li	
Sport gimnastikasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik va amaliy jihatlari.....	826
Karimov Doniyor Komil o'g'li	
Neyropsixologiya va neyropedagogikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi.....	830
N. O. Saidova	
Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishining nazariy asoslari.....	833
Nosirova Shoxsanam Negmat qizi	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar	837
Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna	
O'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishda tasviriy san'at va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.....	841
Tulaganov Jahongir Abdimurot o'g'li	



Vizual ta'lim texnologiyalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini diagrammaviy masalalar yordamida rivojlantirish	845
Usmonova Shahlo Saidjon qizi	
Biologiya darslarida o'quvchilarning ilmiy xabardorlik kompetensiyasini shakllantirishda mashq va masalalardan foydalanish metodikasi	849
Yakubova Fotima Xamza qizi	
Система духовных ценностей в современной русской прозе (а. волос "сирийские розы")	853
Ольга Чангировна Хегай	
Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari va ularning pedagogik-psixologik tasnifi	856
Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi	

AUTIZM SPEKTRI BUZILISHIGA EGA BOLALAR OILALARIDA SIBLING MUNOSABATLARINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Rayimova Gulchehra Utkur qizi
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Autizm spektri buzilishi tushunchasi va uning oilaviy tizimga ta'siri, oiladagi psixologik iqlim, emotsional barqarorlik hamda o'zaro munosabatlar sifat jihatidan tahlil etilgan. Sibling munosabatlari fenomeni psixologik va ijtimoiy yondashuvlar asosida yoritilgan. Autizm spektri buzilishi sharoitida sibling munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-psixologik omillar va ularning ta'siri, ushbu munosabatlarni rivojlantirishning kompleks modellari hamda ularni optimallashtirishga qaratilgan psixologik-pedagogik mexanizmlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: autizm spektri buzilishi, emotsional barqarorlik, empatiya, adaptatsiya, oilaviy tizim, sibling munosabatlari, o'zaro munosabatlar, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar.

Abstract: The concept of autism spectrum disorders and their impact on the family system, psychological climate, emotional stability, and the quality of interpersonal relationships are analyzed. The phenomenon of sibling relationships is examined through psychological and social approaches. The specific characteristics of sibling relationships in the context of autism spectrum disorders, socio-psychological factors and their influence, as well as comprehensive models for the development of these relationships and psychological-pedagogical mechanisms for their optimization are scientifically substantiated.

Key words: autism spectrum disorders, emotional stability, empathy, adaptation, family system, sibling relationships, interpersonal relationships, socio-psychological mechanisms.

Аннотация: Рассмотрены понятие расстройств аутистического спектра и их влияние на семейную систему, психологический климат в семье, эмоциональная устойчивость и качество межличностных отношений. Феномен сиблинговых отношений проанализирован на основе психологических и социальных подходов. Обоснованы специфические особенности сиблинговых отношений в условиях расстройств аутистического спектра, социально-психологические факторы и их влияние, а также комплексные модели развития данных отношений и психолого-педагогические механизмы их оптимизации.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра, эмоциональная устойчивость, эмпатия, адаптация, семейная система, сиблинговые отношения, межличностные отношения, социально-психологические механизмы.

KIRISH

Jahon miqyosida bolalar rivojlanishida kuzatilayotgan nevroontogenetik xususiyatlar ichida autizm spektri buzilishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda autizm spektri buzilishi tashxisi qo'yilgan bolalar sonining ortishi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar doirasida ham ushbu muammoni chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, autizm spektri buzilishiga ega bolalar tarbiyalanayotgan oilalardagi munosabatlar tizimi, shu jumladan, sibling (aka-uka va opa-singillar) o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda.

Oila – shaxs rivojlanishining asosiy ijtimoiy muhiti sifatida bolaning emotsional, kognitiv va ijtimoiy shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Autizm spektri buzilishiga ega bola mavjud bo'lgan oilada tizimli o'zgarishlar kuzatiladi: rollar qayta taqsimlanadi, ota-onalarning diqqat markazi o'zgaradi, resurslar taqsimoti murakkablashadi. Bu holat, o'z navbatida, sog'lom siblinglar psixik holatiga, ularning shaxsiy rivojlanishiga va ijtimoiy moslashuviga ta'sir ko'rsatadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda sibling munosabatlari oilaviy tizimning muhim komponenti sifatida qaralib, ularning mazmuni va dinamikasi ko'plab omillar bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Xususan, autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlari ko'p hollarda ziddiyatli xarakter kasb etib, bir tomondan, mas'uliyat va g'amxo'rlik hissining ortishi, ikkinchi tomondan esa, stress, raqobat va emotsional zo'riqish holatlari bilan ifodalanadi.

Shuning uchun mazkur munosabatlarning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash va nazariy-metodologik jihatdan asoslash dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarini tizimli tahlil qilish orqali nafaqat oilaviy muhitni optimallashtirish, balki sog'lom bolalarning psixik salomatligini muhofaza qilish va ularda ijobiy ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, mazkur muammoning yetarlicha o'rganilmagan jihatlari mavjud bo'lib, ayniqsa, milliy-madaniy kontekstda uni tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari tizimli yondashuv, shaxs-faoliyat konsepsiyasi, oilaviy munosabatlar psixologiyasi va rivojlanish psixologiyasi nazariyalariga tayanadi. Shuningdek, zamonaviy xorijiy va mahalliy olimlarning autizm spektri buzilishi, oilaviy stress, sibling munosabatlari hamda ijtimoiy moslashuvga oid ilmiy qarashlari ushbu tadqiqotning ilmiy poydevorini tashkil etadi.

Shu tariqa, mazkur maqola autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarining nazariy-metodologik asoslarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, bu sohadagi ilmiy bilimlarni boyitish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Autizm spektri buzilishi neyro-rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan murakkab psixik holat bo'lib, u bolaning ijtimoiy muloqot, kommunikatsiya va xulq-atvor sohalaridagi o'ziga xosliklari bilan xarakterlanadi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, autizm spektri buzilishi biologik, genetik va neyrofiziologik omillar ta'sirida shakllanadi va u butun hayot davomida shaxs rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Autizm spektri buzilishiga ega bola mavjud bo'lgan oilada tizimli o'zgarishlar yuzaga keladi. Oila tizimlari nazariyasi nuqtai nazaridan M. Bouen, S. Minuchin yondashuvlariga asoslanib, oila – bu o'zaro bog'langan podsistemalardan iborat dinamik tizimdir. Ushbu tizimdagi har qanday o'zgarish barcha a'zolarga ta'sir ko'rsatadi.

Autizm spektri buzilishiga ega bola paydo bo'lishi oilada rollar qayta taqsimlanishiga, emotsional resurslarning qayta yo'naltirilishiga va kommunikatsiya modellari o'zgarishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autizm spektri buzilishiga ega bolalar ota-onalarida stress darajasi yuqori bo'ladi, bu esa oilaviy muhitga va boshqa farzandlar – siblinglarga ham ta'sir qiladi. Natijada, oiladagi psixologik iqlim, emotsional barqarorlik va o'zaro munosabatlar sifat jihatdan o'zgarishi mumkin.

Autizm spektri buzilishining oilaviy tizimga ta'siri quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- emotsional yuklanishning oshishi;
- vaqt va resurslarning qayta taqsimlanishi;
- ijtimoiy faollikning cheklanishi;
- ota-onaning tarbiyaviy strategiyalarida o'zgarishlar.

Bu jarayonlar sibling munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim fon sifatida namoyon bo'ladi. Sibling munosabatlari – bir oilada o'sib borayotgan farzandlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, muloqot va emotsional aloqalar tizimidir. Ushbu munosabatlar shaxs rivojlanishida muhim ijtimoiylashuv muhiti hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda sibling munosabatlari bir necha nazariy yondashuvlar asosida o'rganilgan:

1. **Psixoanalitik yondashuv** (Z. Freyd, A. Adler). Bu yondashuvga ko'ra, siblinglar o'rtasida raqobat va "birinchi o'rin" uchun kurash muhim o'rin tutadi. Adler nazariyasida tug'ilish tartibi shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida qaraladi^[12].
2. **Ijtimoiy o'rganish nazariyasi** (A. Bandura). Siblinglar bir-biridan xulq-atvor modellari o'rganadi. Ayniqsa, ASBga ega bola bilan muloqotda normotipik siblinglarda sabr-toqat, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi^[10].
3. **Oilaviy tizimlar nazariyasi** (Bowen, Minuchin). Sibling munosabatlari oila tizimining muhim podsistemi sifatida qaraladi va boshqa podsistemalar bilan uzviy bog'liq^[6].

4. **Ekologik tizimlar nazariyasi** (Bronfenbrenner). Sibling munosabatlari mikrotizim (oila), mezotizim (maktab, qo'shnilar) va makrotizim (madaniyat, jamiyat) ta'sirida shakllanadi ^[9].

Autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlari ikki qutbli xarakterga ega bo'lishi mumkin:

- ijobiy (qo'llab-quvvatlash, g'amxo'rlik, empatiya);
- salbiy (rashk, stress, ijtimoiy izolyatsiya).

Autizm spektri buzilishiga ega bola ishtirok etgan oilada sibling munosabatlari quyidagi xususiyatlar bilan farq qiladi:

- *Birinchidan*, emotsional asimmetriya kuzatiladi. Ota-ona e'tiborining asosiy qismi autizm spektri buzilishiga ega bolaga qaratilishi boshqa farzandlarda yetishmovchilik hissini yuzaga keltirishi mumkin ^[2].
- *Ikkinchidan*, rollar transformatsiyasi yuz beradi. Ko'p hollarda sog'lom sibling "yordamchi", "himoyachi" yoki "ikkinchi tarbiyachi" rolini egallaydi.
- *Uchinchidan*, ijtimoiylashuv jarayoni murakkablashadi. Siblinglar tashqi muhitda (maktab, tengdoshlar orasida) qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, siblinglarda bir vaqtning o'zida ham stress, ham ijobiy rivojlanish (post-travmatik o'sish) kuzatilishi mumkin ^[4]. Autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarining rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq.

Ijtimoiy-iqtisodiy holat muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar kam ta'minlangan oilalarda stress darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi, bu esa sibling munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi ^[6].

Stigmatizatsiya va ijtimoiy munosabatlar ham muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda autizm spektri buzilishi haqidagi noto'g'ri tasavvurlar siblinglarda uyalish, o'zini cheklash va ijtimoiy izolyatsiyani keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (maktab, mutaxassislar, jamoat tashkilotlari) sibling munosabatlarini barqarorlashtiruvchi omil hisoblanadi.

Psixologik omillar sibling munosabatlarining asosiy determinantlari sifatida namoyon bo'ladi. Ota-onaning tarbiya uslubi markaziy ahamiyatga ega. Avtoritar yoki giperkamxo'rlik uslubi siblinglarda stressni oshiradi, demokratik uslub esa ijobiy munosabatlarni shakllantiradi.

Empatiya va emotsional intellekt muhim omillardan hisoblanadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, yuqori empatiyaga ega siblinglar autizm spektri buzilishiga ega bolaga nisbatan ijobiy munosabatni namoyon qiladi ^[5].

Kommunikatsiya sifatining yuqoriligi ham muhim. Ochiq muloqot muhiti konfliktlarni kamaytiradi va ishonchni oshiradi.

Individual-personologik omillar ham muhim:

- yosh farqi;
- jins;
- temperament;
- stressga chidamlilik.

Katta yoshdagi siblinglarda mas'uliyat hissi yuqori bo'ladi, ammo bu ularda emotsional charchashga ham olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari mazkur sohada milliy-madaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurligini ko'rsatadi. Chunki oilaviy qadriyatlar, tarbiya uslublari va ijtimoiy kutilmalar sibling munosabatlarining shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarini nazariy-metodologik jihatdan asoslash ushbu jarayonlarni samarali boshqarish, oilaviy muhitni sog'lomlashtirish hamda barcha bolalarning barqaror psixik rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar kelgusida korreksion-rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqish va psixologik xizmatlarni takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boyd, B. A., McDonough, S. G., & Bodfish, J. W. (2014). Evidence-based behavioral interventions for autism.
2. Karst, J. S., & Van Hecke, A. V. (2012). Parent and family impact of autism spectrum disorders.
3. Hastings, R. P. (2003). Behavioral adjustment of siblings of children with autism.
4. Meadan, H., Stoner, J. B., & Angell, M. E. (2010). Review of literature on siblings of children with autism.
5. Kaminsky, L., & Dewey, D. (2001). Sibling relationships of children with autism.
6. Emerson, E. (2003). Mothers of children with intellectual disability.
7. Bowen, M. Family systems theory.
8. Minuchin, S. Structural family therapy.
9. Bronfenbrenner, U. Ecological systems theory.
10. Bandura, A. Social learning theory.
11. Adler, A. Individual psychology.
12. Фрейд З. Психоанализ асослари.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.